



DARSDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLARDA IS‘HOQXON IBRAT HAYOTI VA IJODINI O‘RGATISH USULLARI

Allambergenov H.

*Nukus DPI O‘zbek adabiyoti kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari
bo‘yicha falsafa doktori*

Normengliyeva D.B.

Nukus DPI o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi

Tayanch so‘zlar: Is‘hoqxon Ibrat, „Ko‘rgoni keldim sog‘inib“ g‘azali, o‘rgatish usullari, flippity.net, Google Classroom, Wordwall, Educapley, Joyetka dasturlari.

Ключевые слова: Исхакхан Ибрат, газель «Коргони келдым согиниб», методика обучения, Flippity.net, Google Classroom, Wordwall, Educapley, программы Joyetka.

Key words: Ishakhan Ibrat, gazelle “Korgoni keldym soginib”, teaching methods, Flippity.net, Google Classroom, Wordwall, Educapley, Joyetka programs.

Globalashuv davrida o‘quvchi yoshlarni kitobga qiziqtirish, fikrlash doirasini kengaytirish, mulohazali, odob-axloqli qilib tarbiyalash murakkab masala. Shu bilan birga kitobga bo‘lgan hurmat, e‘tiborning borgan sari susayib borayotgani ham achinarli holatlardan biri. Bunda ijtimoiy tarmoqlarning ta‘siri kuchli ekanligini ham ta‘kidlash joiz. O‘quvchi yoshlarning deyarli barchasida zamonaviy gadjetlar mavjud bo‘lib, ular o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javoblarni kitoblardan emas, ijtimoiy tarmoqlarning u yoki bu saytlardan izlab topishmoqda. Ammo ko‘rilayotgan chora-tadbirlarning barchasi ham o‘quvchilarni kitobxonga aylantirib qo‘yayotgani yo‘q.

Bunday vaziyatda yoshlar o‘rtasida ma‘rifatni keng targ‘ib etish esa, albatta, adabiyot o‘qituvchilari zimmasiga tushadi. O‘qituvchi nafaqat dars davomida, balki darsdan tashqari mashg‘ulotlarda ham ma‘rifatni, kitobxonlikni targ‘ib etishi, o‘rgatishi kerak bo‘ladi. Zero darsdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsad ham shudir.

1959-yildan boshlab maktablarda sinfdan tashqari darslar tashkil qilinib kelinmoqda. Sinfdan tashqari o‘qitishning maqsadi – o‘qish malakalarini takomillashtirish, kitob tanlab oladigan, muntazam kitob o‘qilydigan, o‘qilgan

kitobni to‘g‘ri baholay oladigan, ongli kitobxonni tarbiyalash. Bu darslarning asosiy vazifasi o‘quvchida badiiy kitoblarni o‘qishga havas uyg‘otish, o‘qigan kitoblari yuzasidan kundalik yurita olishga o‘rgatish, adabiyotning mashhur adiblari hayoti va ijodi bilan elementar tarzda tanishtirish [2].\ Mazkur maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda olim, shoir, publitsist, jamoat va din arbobi Is‘hoqxon Ibrat hayotiy faoliyati va ijod namunalarini maktabning yuqori sinf (7-11-sinf) o‘quvchilariga sinfdan tashqari mashg‘ulot tarzida o‘rgatish juda zarur. Chunki adibning mashaqqatga to‘la ibratli hayot yo‘li, uyg‘oqlikka, ilm olishga chorlovchi asarlari va til o‘rganishning hayotimizdagi roli ortib borayotgan bir vaqtda olimning olti tillik tug‘at yaratgani, sakkiz tilni mukammal bilganligini bugungi kun yoshlariga namuna, ibrat qilib ko‘rsatish lozim. Mazkur maqolamizda Ibrat hayotini o‘rgatish uchun bir qancha metodlar, dastur hamda platformalarni tavsiya qildik. Dastur va platformalarni tavsiya qilishimizning sababi: ustoz-murabbiy bugungi texnologiya rivojlangan zamonda darslarni yangi, zamonaviy, qiziqarli metodlar bilan tashkil qilmasa o‘quvchilarni fanga, mavzuga qiziqtirish qiyin.

Is‘hoqxon Ibrat hayoti va ijodini o‘rgatishda „Bumerang“, „Blis-so‘rov“, „O‘zlashtirib javob ber“, „Maktub“, „T-chizma“, „Insert“, „Juftini top“, „Sinkvey“, „Lift“, „Puzzle“ kabi metodlardan hamda dars yakunida savol va topshiriqlar bajarish uchun Google Classroom, Plickers, Padlet, iSpring, Joyteka, Wortwall, Kahoot, flippity.net dasturlaridan foydalanish mumkin. Quyida ushbu dastur va saytlarning ayrimlari bilan Ibrat hayoti va ijodiga oid namunalar asosida tanishib chiqamiz:



Flippity.net dasturi. Bu dasturning turli xil qiziqarli bo‘limlari bo‘lib, undan o‘quvchilarni guruhlariga bo‘lish, savollarga kim javob berishini aniqlash, boblar yoki mavzu yuzasidan takrorlash, mavzuni mustahkamlash kabi jarayonlarda qo‘llash mumkin. Flippity.net dasturidagi topshiriqlar an’anaviy topshiriqlardan

savol shaklining qiziqarliligi bilan ajralib turadi, ya’ni dasturdagi savollar ham an’anaviy savollar bilan bir xil, ammo berilish shakli boshqacha. Bu dastruning afzalliklari shundaki, yodlanishi, tushunilishi qiyin bo‘lgan mavzularni yoki topshiriqlarni tez eslab qolish hamda yodlab olishga yordam beradi. Bundan tashqari, topshiriqlarni bajarish yoki kichik guruhlarni tashkil qilishda ham juda qo‘l keladi. Bu dasturni faqatgina elektron doskalar yoki kompyuterlarda emas, balki telefonlarda ham ishlash mumkin. Mazkur dasturning yana bir qulayligi




boshqa dastur yoki saytlar singari email pochta yoki ism so‘ramaydi. Uni hamma bemalol ishlatishi va ishlashi mumkin. Bu dasturdagi kamchiliklardan biri uni faqatgina internet orqali ishlash mumkinligidir. Flippity.netda ishlangan Is’hoqxon Ibrat hayoti va ijodiga oid savol, topshiriqlardan namunalari:



<https://flippity.net/wm.php?x=32ZknpfWViuD%E2%80%98bw%20,VyezSXD,K5AheV6,dKjY081%20fGOcpq,iMw0sJ8M5OVF,7NSY0V%20WjZiyt8,SQhDg%20C6Gomb5v%20CyQ8J%20,1TckZjdE%20gHrPkuA-h&t=Ibrat%20hayotiga%20oid%20shaxslar%20ismlari>

Dasturning ushbu bo‘limida o‘quvchilar istalgan harflarni katakchaga yozadilar va to‘g‘ri harflar yashil rangda, xato harflar sariq rangda namoyon bo‘ladi. O‘quvchilar to‘g‘ri ma’lumotni topishlari uchun uch martagacha urinib ko‘rishlari mumkin.



<https://flippity.net/mg.php?c=Mezon%20uzzamon,Tarixi%20Farg%E2%80%98ona,Tarixi%20madaniyat,Lug%E2%80%98ati%20sitta%20aslina,Jome%2527%20ulxutut,Fotografiyai%20Ishoqiya,Altijor%20alNamangan,Matbaayi%20Ishoqiya,Kutubxonayi%20Ishoqiya,Xodim,Junaydullaxo%E2%80%98ja,Hurbibi,Abbosxon,&t=Ibrat%20hayoti%20va%20ijodi&g=Memory>

Flippity.netning bu bo‘limida mavzu yuzasidan asosiy tushunchalarni yoki o‘quvchilar uchun eslab qolinishi qiyin ma’lumotlarni taqdim etish mumkin.



Ushbu bo‘lim o‘quvchilarga muhim ma‘lumotni oson eslab qolishini imkonini beradi hamda diqqatini oshiradi.

Google Classroom dasturi. Mazkur dastur ham boshqa elektron dasturlar singari bir qancha qulayliklarga va shu bilan birga kamchiliklarga ham ega. Maktablarda bob yoki chorak yakunida olinadigan nazorat ishlar, mustahkamlash uchun beriladigan test topshiriqlari odatda qog‘ozlarda chiqarilib o‘quvchilarga tarqatiladi va ishlatiladi. Bu dastur esa shu jarayonning



elektron shakli. Dasturning afzalligi shundaki, unda o‘qituvchi o‘quvchilar bilan sinflariga ko‘ra guruhlar yaratib olishi va unga dasrliklardan foydalanish uchun qo‘shimcha adabiyotlar, topshiriqlar berib borishi, mavzuga oid video, audio materiallar hamda testlar joylashi mumkin. Har bir o‘quvchi guruhiga kirib savollarga javob berishi, kitoblardan foydalanishi, video, audiolarni tinglashi mumkin.

Google Classroomning afzalliklaridan yana biri o‘quvchilar testni ishlab bo‘lishlari bilanoq natijalarini va ballarini bilib oladilar. Biroq uning internet bilan ishlashi hamda dasturga kirmoqchi bo‘lgan har bir kishidan elektron pochta ma‘lumotlarini so‘rashi biroz noqulaylik tug‘dirishi hamda muammo keltirib chiqarishi mumkin. Chunki barcha o‘quvchilarni internet bilan ta‘minlash va ularda email pochta mavjud bo‘lmasligi tabiiy hol.

Quyida esa namuna sifatida Google Classroom dasturida Is‘hoqxon Ibrat hayoti va ijodiga oid test topshiriqlarini ko‘rishingiz mumkin. Bundan tashqari, qo‘shimcha ilova tarzida shoir hayotiga oid film, intervyu, maqolalar, kitoblar, ilmiy manbalar, yangi ma‘lumotlar ham joylash mumkin. Ko‘rinadiki, dastur imkoniyatlari onlayn darslar hamda masofaviy ta‘lim shakli uchun juda mos.



Ibrat qalamiga mansub asarlarini belgilang. * 10 ballus

- "Hind sayyohi qissaasi"
- "Lug'ati sittayi aslina"
- "Arslon"
- "Mezon uz-zamon"
- "Tarixi madaniyat"
- "Qor qo'nyida lola"
- "Tarixi Farg'ona"

Is'hoqxon Ibrat qaysi asarlarida 1887-yili, ya'ni 25 yoshida onasini Makkaga olib borish uchun o'tanganligi haqida ma'lumot beradi? * 10 ballus

- "Mezon uz-zamon"
- "Lug'ati sittayi aslina"
- "Tarixi Farg'ona"
- "Tarixi madaniyat"
- "Jome' ul-xutuf"

<https://forms.gle/pWDcm3t6v5JgappQA>



Oltin bog'ini bulbul qon. tikan uzra beray deb jon. 10 ballon

Bo'lar gul zavqiddin qurbon sahar vaqti chaman ichra.
Ajratis ko'rsatilgan jumlada qo'llangan she'riy sariatni aniqlang.

Istiora
 Tashbih
 Nido
 Talmech
 Tanosub
 Taxshis

...., dilbar, zor-zor, 10 ballon

Shem-u sabo, layl-u nahor.
Yo'q emdi bizda iztiyor,
Ko'rgoni keldim sog'inib.
Nuqtalar o'rniga mos keluvchi so'zni belgilang.

Ishqingda
 Ko'yinoda



<https://forms.gle/hNaijSx9b5F44Wj46>



Wordwall dasturi. Bu dasturda test savollari kiritilgandan so'ng ularni turli xil ko'rinishda namoyish etish mumkin. Mavzuga hamda fanga mos holda fon va ko'rinish tanlash mumkin. O'qituvchi har bir savol uchun ma'lum vaqt belgilashi, ularning kelma-ketligini aralastirib yuborishi mumkin. Bu esa o'quvchilarda bir-biridan ko'chirmaslik, fikr almashmagan holda ishlashini ta'minlaydi. O'quvchilar javobni belgilashi


bilan to'g'ri yoki xatoligi chiqadi va savollar tugagach umumiy to'plagan balli namoyon bo'ladi. Bu dasturning afzalligi ham shunda. O'quvchilar testni ishlab bo'lishlari bilan natijalarini bilishlari mumkin bo'ladi. Dastur o'qituvchilarga o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash hamda bir vaqtning o'zida baholash imkonini beradi.

0:56 ✓ 0


„Jome' ul-xutut“ („Yozuvlar majmuasi“) asarida nechta yozuv tizimi haqida ma'lumot keltirilgan?

A	21	B	31	C	41
D	20	E	30	F	40

4 of 10



<https://wordwall.net/resource/65396572>



<https://wordwall.net/resource/65314728>



Educaplay dasturi. Elektron darsturlar ichida eng faol qo'llanadigan dasturdir. Ushbu dasturning bir qancha afzalliklari mavjud. Undagi topshiriqlar xilma-xil va noodatiy. Odatdagi savollar, topshiriqlarni qog'ozda bajarishdan ko'ra bu dasturda bajarish o'quvchilar uchun ham qiziqarli. Bundan tashqari, vaqtni tejaydi. O'qituvchi bir paytning o'zida barcha o'quvchilarni nazorat qilishi va baholashi mumkin.

Quyida ushbu dasturda Is'hoqxon Ibrat hayoti va ijodi bo'yicha ishlangan topshiriqlarni ko'rib chiqamiz.




https://www.educaplay.com/learning-resources/17279502_ibrat_hayoti_va_ijodi.html

Dasturning mazkur bo'limida harflar o'rni almashgan holda namoyon bo'ladi va o'quvchilar ularni to'g'ri ketma-ketlikda qo'yishganidan so'ng ijodkor hayoti yoki ijodiga oid ma'lumot kelib chiqadi. Bu bo'lim orqali o'quvchilar ijodkor hayoti va ijodi haqidagi bilimlarni mustahkamlashi hamda asarlari nomlarini, yozilishi qiyin so'zlarni to'g'ri yozishni o'rganishlari mumkin.



https://www.educaplay.com/learning-resources/17279953-is_hoqxon_ibrat.html

Educaplay dasturining ushbu bo‘limida yordamchi vosita shaklida talab etilayotgan javoblarning birinchi harfi ko‘rsatilib turadi, shunga ko‘ra o‘quvchilar javobning qolgan qismini topib, bo‘sh katakchaga kiritadilar. Bo‘limning qulayligi shundaki, savollarni ketma-ketlikda ishlash shart emas, keyingi savolga o‘tib, jarayonni davom ettirishi mumkin. Tashlab o‘tilgan savollar oq rangda, to‘g‘ri javob berilgan savollar yashil rangda, noto‘g‘ri berilgan javoblar esa qizil rangda belgilanadi. Bunda o‘quvchi savollarni qancha vaqtda ishlaganini, qancha ball to‘plaganini, qaysi savollarga xato javob berganligini ko‘rishi mumkin.



<https://www.educaplay.com/learning-resources/17298440>

Dasturning keyingi bo‘limida o‘quvchilar ikki ustundagi ma‘lumotlarni bir-biri bilan moslashtirishlari lozim bo‘ladi. Mazkur metoddan ijodkor biografiyasini o‘rgatishda ham, she‘riy, nasriy asarlarini o‘rgatishda ham samarali foydalanish mumkin. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarish mobaynida asar qahramonlari ismlari va ularga berilgan ta‘riflarni, yillar hamda voqealar mutanosibligini, she‘r misralari to‘g‘riligini moslashtirishlari mumkin.



https://www.educaplay.com/learning-resources/17280225-is_hoqxon_ibrat.html



Joyteka dasturi. Ushbu dasturda savollarni uch xil shaklda taqdim etish mumkin: bir javob belgilaydigan, bir nechta javob belgilaydigan yoxud yozma javob beriladigan. Dasturda turli xil savollar kiritish hamda qaysidir predmet ortiga yashirish mumkin bo'lgan xonalar mavjud. Ularga kiritiladigan savollar soni chegaralangan. Shu sababli o'qituvchi dastlab ko'proq savol kiritish mumkin bo'lgan

bir nechta xonalarga savollar tuzib, kiritib oladi, so'ngra o'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lib oladi va har bir guruhga nom qo'yadi. Har bir guruh o'z nomi bilan dasturga kiradi va savollarni topib unga javob beradilar. Barcha javoblar to'g'ri berilgandagina ular xona eshigidan chiqishlari mumkin bo'ladi. Dasturning qulayligi shundaki, taxminan belgilangan savollarni bir nechta marta ishlash mumkin. Bunda hech qanday cheklov yo'q.

Bu metod orqali o'quvchilar shunchaki savollarga javob berib qolmasdan, bir jamoa bo'lib ishlash, bir-birini tinglash va fikrini hurmat qilish, o'zaro ahillik va yakkilik bilan harakat qilish, g'alaba (xonadan chiqish) uchun barchasi mas'ulligini his qilgan holda „kurashish“ ko'nikmasini ham shakllantiradi.



<https://joyteka.com/100465271>



<https://joyteka.com/ru/100473692>

Xullas, umumiy oʻrta taʼlim maktablarining darsdan tashqari mashgʻulotlarida Isʼhoqxon Ibratning hayot yoʻlini va asarlarini oʻrgatish orqali oʻsha davr muhitini oʻquvchilarga his ettirish, bugungi kun imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga oʻrgatish lozim. Xususan, adibning „Mezon uz-zamon“ asarida oʻsha davrdagi kamchiliklar, illatlar, oʻz zamondoshlaridan, yaʼni yangilikka, taraqqiyotga gʻov boʻlayotgan, oddiy va arziyas narsalarni hayot mazmuniga aylantirib olgan shaxslardan shikoyatlari aks etgan. Eng achinarlisi, Ibratni tashvishga solgan, oʻyga toldirgan oʻsha holatlarning ayrimlari bugungi kunda ham uchrayotganidir.

Oʻquvchilar Ibratning „Jomeʼ ul-xutut“ asari orqali tilshunoslikka oid maʼlumotlardan xabardor boʻlsa, „Tarixi Fargʻona“ asarida tarix haqida chuqurroq bilib olishlari mumkin. Uning eng katta tadqiqotlaridan bir boʻlgan „Lugʻati sitta alsina“ asarida esa ona tilimizdan tashqari bugungi kun uchun ham ahamiyatli boʻlgan arab, fors, hind, turk, rus tillari haqida maʼlumot olishlari mumkin.

Ibrat lirikasining mavzu koʻlami rang-barang. Shoir uslubi sodda, tili ham ravon. Uning gʻazallarini har qanday oʻquvchi bimalol tushunishi, his qilishi mumkin. Adib sheʼriyatida aksariyat hollarda ijtimoiy muammolarga murojaat etiladi. Bu kabi muammolar Ibrat zamonida ham, bugungi kunda ham mavjudligining sababi ilmsizlik, ilm egallash yoʻlidagi loqaydlik ekanligi, agarda yoshlar kitob oʻqimasa, yangiliklarga oʻch boʻlmasa, bunday muammolar keyingi davrlarda ham davom etaverishi uqtirish lozim. Yuqorida taʼkidlab oʻtganimizdek Ibrat ijodini maktab taʼlimi dastur va dasrliklarida berilmaganligi uchun 10-11-sinflarda sinfdan tashqari mashgʻulotlar tarzida oʻrgatish maqsadga muvofiqdir. Chunki jadidchilik davrini, Ibratning olib borgan saʼy-harakatlarini va asarlarini yosh xususiyatlariga bogʻliq holda mazkur sinf oʻquvchilari juda yaxshi tushunib, his qila oladilar.



Shuni ham esdan chiqarmaslik lozimki, yurtboshimizning: „Maktablarda o‘qitish metodikasi o‘zgarmasa, ta’lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi“ [1] degan fikrlari juda asoslidir. Darhaqiqat, dars mashg‘ulotlarida ham, darsdan tashqari mashg‘ulotlarda ham axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan, multimedia vositalaridan unumli foydalanish zamon talabiga aylanib bormoqda. Yuqorida ta’kidlangan dastur va platformalarda taqdim etilayotgan topshiriqlar bir qarashda biz avvaldan qo‘llab kelayotgan ochiq, yopiq, aralash testlar, „Moslashtiring“, „Tezkor savol-javob“ kabi usullarning elektron shakli sifatida taassurot uyg‘otadi. Ammo oddiy qog‘ozlardan farqli o‘laroq ushbu dasturlarda topshiriqlarni bajarish o‘quvchilar uchun qiziq, shu bilan birga, ularda ijtimoiy tarmoqlardan o‘rinli va maqsadli foydalanish ko‘nikmasini shakllantiradi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasi bo‘yicha videoselektor yig‘ilishida so‘zlagan nutqidan. 2020.
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/boshlang-ich-ta-limda-sinfdan-tashqari-darslarni-tashkil-etish-metodikasi-va-ularning-ahamiyat/i>

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda Is’hoqxon Ibrat hayoti va ijodini o‘rgatish masalasi tadqiq etilgan va dars jarayonida qo‘llash mumkin bo‘lgan bir qator samarali usullar, dastur va saytlar tavsiya etilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье изучается вопрос преподавания жизни и творчества Исхакхана Ибрата во внеклассной деятельности в общеобразовательных школах и рекомендуется ряд эффективных методов, программ и сайтов, которые можно использовать в ходе урока.

SUMMARY

This article examines the issue of teaching the life and work of Ishakhan Ibrat in extracurricular activities in secondary schools and recommends a number of effective methods, programs and websites that can be used during the lesson.